

MTT DA BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINING RIVOJLANISHIDA TASVIRIY FAOLIYATNING O'RNI

Nargisxon Nurmatova

*Farg'onan viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha,boshlang'ich va maxsus ta'lif
metodikalari kafedrasini o'qituvchisi*

Annatotsiya: Ushbu maqolada pedagogika fanida qo'llanadigan texnologiyalar, fanning zamonaviy termini hisoblangan innovation pedagogika kabilar haqida bat afsil fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, texnologiya,

Hozirgi kunda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar,ta'lif texnologiyasi,o'qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda.bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta'lif muammolariga oid ma'ruzalar,rasmiy hujjatlarda "Yangi pedagogik texnologiya", "Ilg'or pedagogik texnologiyasi", "Zamonaviy ta'lif texnologiyasi" ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan,ensiklopediyalarda izohlanganicha yo'q,uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan,shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.Hozirgi davr ta'lif taraqqiyotida yangi yo'nalish-innovatsion pedagogika maydonga chiqdi.Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin:

- 1.Innovatsiya nima?
- 2.Innovatsion pedagogik jarayon va texnologiya nima?
- 3.Pedagogik texnologiya nima?

Innovatsion pedagogika termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Evropa va AQSHda 60-yillarda paydo bo'ldi.Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan.U yangilik kiritish bosqichi ishtirokchilarining toifalarini tasnifi, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tatqiq etadi.

Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta'lif sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi,o'qituvchi faoliyati yangilanadi,o'quvchi talaba-yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, vatanga mehr-muhabbat,insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi.Bugungi kundagi zamonaviy ta'lifning asosiy qismlaridan biri bu, yangicha zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar hisoblanadi.Ushbu pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali maktabgacha ta'lif tashkilotlarida jarayonlarni tashkil etish bolalarning erkin va ijodiy faoliyatlarining natijadorligiga xizmat qiladi.

Prezidentimizning bunday jijoatli so‘zlarini eshitganimizdan so‘ng biz tarbiyachi pedagoglarning burchimiz va vazifamiz nechog‘lik muhim ekaniga va ularning ishonchi bizda ekanligiga amin bo‘lamiz.Ta’lim jarayonini ilg‘or va innovatsion tashkil etish ,uni samarali boshqarish pedagoglar oldida turgan eng muhim asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali bolalarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- har tomonlama intelektual salohiyatlari bugungi zamon talablariga raqobatbardosh bo‘lishlarini ta’minlaydi;
- ta’lim va o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi;
- bolalarda kreativ fikrlash va yangi g‘oyalar shakllanadi;
- innovatsion tajribalar va yaratuvchanlik qobiliyatları rivojlanadi;
- ijodiy rivojlanish sohalari mukamallashadi.

Yuqorida berilgan yangi pedagogik texnologiyalarni MTT da san’at markazida qo‘llash uchun avvalo biz san’at markazining ahamiyatini va rivojlanishga ta’sir ko‘rsatishini ham bilib olishimiz zarur bo‘ladi.

San’at markazi bolalarga quvonch,hayajon va qoniqish hislarini baxsh etadi.U turli funksiyalarni bajaradi, biroq eng avvalo bolalarning ijodkorligi,qiziquivchanligi, tasavvuri va tashabbusiga oziq beradi.Agar bolalarga materiallar bilan tajriba o‘tkazish,o‘zi uchun yangi narsalarni kashf etish,g‘oyalarni sinab ko‘rish uchun vaqt imkoniyat va erkinlik berilsa,ularda muvaffaqiyatli o‘qish va ishslash uchun poydevor shakllanadi.

E.Pol Torrens o‘zining “Maktabda ijodiy tafakkurni rivojlantirish” nomli kitobida ijodkorlikka shunday ta’rif bergan edi:”G‘oyalar va gipozetalarning shakllanishi,ularning tekshirib ko‘riliши va natijalari haqida axborot berish jarayoni.Bu ta’rif qandaydir yangi narsani, ilgari hech qachon mavjud bo‘lmagan bir narsani yaratishni anglatadi.Bu jarayon qo‘rqmasdan fikrlash,odat bo‘lib qolgan usullardan voz kechish,qolip doirasidan chiqishni o‘z ichiga oladi.U noma'lumlikka qo‘yilgan muvaffaqiyatli qadamdir.Ijodiy g‘oyalar oxir-oqibatda, ilmiy nazariyalar, kashfiyotlar, narsa va buyumlarning takomillashtirilishi, she’rlar, loyihibar, rasmlar va boshqa shu narsalar namoyon bo‘ladi”.

San’at markazi odatda, eng ko‘p ishtirok etadigan markazdir.Ular turli vositalarni sinab ko‘radilar,mol’bertlarda rasm soladilar,barmoq bilan musavvirlik qiladilar,loy,bo‘r parchalari,plastilin,qaychi va boshqa ko‘plab materiallar va vositalardan foydalanadilar.Bunda eng muhimi –tadqiqot jarayoning o‘zi ekanligini yodda tutish katta ahamiyatga molikdir.Bolalarga mo‘ljallangan sifatli ta’lim dasturi bolaning turli xil materiallar asosida ijodiy tajriba orttirishni ta’minlaydi.Bolalar o‘z ijodlarining ikki me’yorli (rasm chizish va tasviriy san’at) mahsulotlarini ham,shuningdek uch me’yorlik mahsulotlarini ham (qurilish va to‘qish) yaratadilar.Dastur,shuningdek,bolalarga san’at asarlari bilan tanishish va ularni

muhokama qilish imkonini yaratadi.Bunday faoliyat turlari bilan shug‘ullanish davomida bolalar madaniyat, tarix va hozirgi jamiyat haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Bolalar,garchi ularning oxirgi mahsuloti katta yoshli kishining nazarida hech narsaga o‘xshamasa ham ,o‘zları qilayotgan ish bilan bog‘liq ravishda hayajonlanadilar.Nozik his etuvchi tarbiyachilar har bir bolaning his-tuyg‘ulariga sherik bo‘ladilar va uning kuch-g‘ayratini qadrlaydilar.Ular,shuningdek, bolalar o‘zlarining rivojlanishlariga ko‘ra bir-birlaridan farq qilishlarini ham hisobga oladilar.

Rasm chizishning ilk bosqichlarida bolaning mushak faoliyati aji-buji chiziqlarni yuzaga keltiradi (ikki yoshdan uch yoshgacha).Mana shu juda muhim bosqichda bola sensor-kinestetik tajriba kasb etadi.Ikki va to‘rt yoshlar oralig‘idagi davrda bola aylana, kvadratlar, uchburchaklar singari o‘ziga xos shakllarni chiza boshlaydi.Kunlardan bir kuni ikki kichik doirasi bo‘lgan katta bir doirani chizishga muvaffaq bo‘ladi va quvonch bilan “Men odamning yuzini chizdim” deb aytadi.Odatda bu to‘rt yoshdagi besh yoshgacha bo‘lgan davrda yuz beradi.So‘ngra ko‘p marta qayta-qayta urinishlar natijasida harakatlari tobora ko‘proq boshqariladigan bo‘lib qoladi.Keyinchalik,tajribasi ortib borgan sari, u shakllarni oldindan o‘ylab chiza boshlaydi va ular haqida tasavvur qilinadigan voqealarni hikoya qilib berishi mumkin.Besh yoshga kirganda ko‘pchilik bolalar odamlar tasvirlangan rasmlarni to‘plab borishi lozim.Bu bolaning rivojlanishini hujjatlashtirib qo‘yish va uni ota-onalar bilan muhokama qilish uchun zarur.Ota-onalar ular bolaning kuch-g‘ayratlarini rag‘batlantirishlari va taqdirlashlari uchun uning bu sohadagi rivojlanish darajasi haqida tasavvurga ega bo‘lishi muhimdir.

Tarbiyachilar boladagi o‘ziga xoslikni inkor qilmasliklari, aksincha uni rag‘batlantirgan holda fasilitatorlar sifatida maydonga chiqishlari zarur.Ba’zan tarbiyachilar bolalarga turli namuna va modellarni ko‘rsatib,o‘zları sezmagan holda ularning ijodini cheklab qo‘yadilar.

San’at markazining rivojlanishga ta’sir ko‘rsatishi.

San’at markazi dasturda muhim ro‘l o‘ynaydi,chunki rivojlanishga uning barcha aspektlarida ko‘maklashadi.

Hissiy rivojlanish

- so‘zsiz muloqot qilish imkoniyati
- his-tuyg‘ularni ifoda etish uchun kanal
- hissiyotlarni to‘kib solish imkoniyatlari
- kuch-qudratni his qilish
- o‘z mahsulotini yaratganligidan qoniqish hissiyoti.

Jismoniy rivojlanish.

- Nozik motorikaning rivojlanishini nazorat qilish
- taktil’qabul qilishni rivojlantirish

Ko‘rish orqali qabul qilishni o‘tkirlashtirish
 -umumiylarini rivojlanish
 -ko‘rish qobiliyatini va qo‘llarini muvofiqlashtirish tajribasini orttirish
 Ijtimoy rivojlanish
 -bolalarni muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilishga rag‘batlantirish
 -mustaqillikni ro‘yobga chiqarishda yordam berish
 -boshqa bolalar bilan hamkorlik va galma-galdan harakat qilish imkoniyati
 -buyumlarning saqlanishi uchun mas’uliyatni his etishga o‘rgatish.
 -boshqalarning g‘oyalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash.
 Intelektual rivojlanish.
 -So‘z boyligini ko‘paytirish
 -sabab-oqibat munosabatlarini o‘zlashtirishda yordam berish-biron hodisa qanday va nima uchun yuz berdi
 -Chiziq, rang, shakl va matn bilan tanishtirish.
 -O‘z ismining yozilishi bilan tanishtirish.Tarbiyachi bolalar bilan bajargan ishlar sanasini yozib qo‘yadi va imzolaydi yoki buni bolalarning o‘zlari qiladilar.
 -Diqqat hajmini orttirish.
 -Tartibli bo‘lishga,izchilikka va rejalashtirishga o‘rgatish.

Bolalarga yo‘naltirilgan guruhsida puxta o‘ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim ro‘l o‘ynaydi,bu pedagoglarga davlat o‘quv dasturining maqsad va vazifalarini amalgalash oshirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash imkonini beradi.